

## TIL BIRLIKLARINING DISTRIBUTIV IMKONIYATLARI

*D. Turniyozova<sup>1</sup>*

### *Annotatsiya:*

Maqolada til birliklarining distributiv imkoniyatlari xususida soʻz boradi. Mazkur imkoniyat shu darajada boʻladiki, agar distributiv (yoxud pozitsion) imkoniyat chegaralangan boʻlsa, paradigmalar shakllanishi ham ancha tor doirada boʻladi.

*Kalit soʻzlar:* distributsiya, paradigma, pozitsion imkoniyat, determinatsiya.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/a864ba59>

---

Til birliklarining distributiv imkoniyatlari shu darajada boʻladiki, agar distributiv (yohud pozitsion) imkoniyat chegaralangan boʻlsa, paradigmalar shakllanishi ham ancha tor doirada boʻladi[1.77].

X.Xayrullaevning toʻgʻri qayd etishiga koʻra, til birliklarining oʻzaro munosabatga kirishuvi ularning distributiv xususiyatlari bilan aloqador boʻlib, maʼlum bir qurshovda mumkin boʻlgan munosabat ikkinchi qurshov doirasiga sigʻmasligi ham mumkin. Bunday vaziyatda til birliklarining kombinator bogʻlanishi ahamiyat kasb etadi. Ammo qanday boʻlishidan qatʼi nazar, ularning funksional qimmat olishi bir-biri bilan bogʻliq holda amalga oshadi. Zotan, til birliklarining kombinator munosabati umumsitsem ahamiyatga egadir, til birliklari bir-biridan ajralgan holda qoʻllanilmaydi[2.13].

Bu oʻrinda X.Xayrullaevning quyidagi fikrini keltirish ham, bizningcha, maqsadga muvofiqdir: «Til birliklarining kombinator munosabati paradigmatic qator doirasida ham, sintagmatik qator doirasida ham kuzatiladi. Ravshanki, tovushlar oʻzaro munosabatga kirishganda faqat ketma-ket bogʻlanish emas, balki almashinish hodisasi ham muhim mavqega egadir: noqulaylik, tinchlik, paxtazor, paxtakor».

Keltirilgan misollarning birinchisida afrikat+oʻzak+affiks, ikkinchisida morfemalarning oʻzak + affiks + affiks tarzidagi munosabati, uchunchisida esa -zor, -kor affiks morfemalarning almashinuv hodisasiga asoslangan distributiv bogʻlanish kombinator aloqani taqozo etmoqda.

Kombinator bogʻlanish keng qamrovli boʻlib, u bir paytning oʻzida paradigmatic munosabatni ham, sintagmatik bogʻlanishni ham oʻz taʼsiriga oladi. Bunda, albatta, paradigmatic munosabat vertikal rejaga koʻra, sintagmatik munosabat esa gorizantal qator doirasida roʻy beradi.

Shuni ham aytish kerakki, til birliklarining paradigmatic munosabati, munosabat fonetik yohud morfologik sathda shakllanayotganidan qatʼi nazar, har doim «yoki... yoki» tamoyiliga boʻysunadi. Boshqacha aytganda, muayyan qurshov (distributsiya) doirasida til birliklari almashinib qoʻllanilishi mumkin boʻladi. Bu juda muhimdir, zotan, sintagmatik munosabatda «va ... va ...» tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy boisi shundaki, sintagmatik munosabat gorizantal qator sathida vujudga keladi.

---

<sup>1</sup> Turniyozova Dildora Behzod qizi, Samarqand davlat chet tillar intsituti

Til birliklarining ma'lum bir qurshov doirasida almashinib qo'llanilishi mumkinligini fonetik birliklar misolida ko'rib o'taylik: d, n, k undoshlar paradigmasi a'zolarining har biri o'unlisidan oldin qo'llana oladi. Bunga ularning ayni paytda bir xil distributiv xususiyatlari sabab bo'ladi: don, non, kon.

Agar paradigma a'zolari bir qurshov doirasiga sig'masa, unda allofon yohud allomorflar o'rtasidagi munosabatga murojaat etadi. Masalan, -chan, -qan, -kan morfemalar qurshovi bunga misol bo'a oladi: ko'rgan, boqqan, ekkan. Ko'rinadiki, -qan, -kan allomorflari asosiy morfema bilan bir xil qurshovda qo'llana olmaydi. Biroq shunday bo'lsa ham, ularning har uchasi bir paradigmani tashkil etmoqda. Ayni paytda paradigma o'tgan zamon sifatdoshi ifodasini beruvchi -gan morfemasi bilan uning allomorflari o'rtasida morfologik paradigma shakllanmoqda. Bu narsa paradigmatic munosabatning «yoki...yoki» tamoyiliga yorqin namuna bo'la oladi.

Paradigmatic munosabat ayni paytda fe'l paradigmasi (ko'r-, boq-, ek-) va morfemalar (affiks morfemalar (-gan, -qan, -kan)) materialiga asoslanmoqda, zotan, o'zak va affiks paradigmalarining sintagmatik munosabatidan sifatdosh shaklidagi katta paradigma shakllanmoqda.

N.Turniyazovning qayd etishiga ko'ra, paradigmatic munosabat virtual xarakterli til birliklarining mushtarak belgilari asosida shakllanadi. Ammo mazkur mushtaraklikni keng ma'noda tushunmoq lozim[3.64]. Masalan, fe'l paradigmasi deganimizda fe'lning turli morfologik belgilari (zamon, mayl, uning funksional shakllari) yashirin holda ahamiyat kasb etadi, yoki ot paradigmasi deganimizda ham otning turli morfologik belgilari (atoqli ot, turdosh ot, jamlovchi ot, atoq ot, mavhum ot) nazarda tutiladi. Bunday birliklarning har biri kichik (mikro-) paradigma uchun umumlashtiruvchi belgi (invariant) bo'la oladi.

Qayd etish lozimki, bir paradigmaga kiruvchi til birliklarining ifoda matnida farq bo'lishi ham mumkin. Bu xususida so'z yuritganida A.Berdialiev quyidagilarni qayd etadi: «... o'zaro oppozitiv munosabatdagi mehnatkash, ishchi, kursdosh, bog'bon, kaptarboz, hukmdor tipidagi so'zlarni bir paradigma doirasida tutashtirish mumkin. Ularning paradigma hosil qilishi uchun asos sanaluvchi mushtarak belgilari—bu shaxs ma'nosini ifoda etishi sanaladi. Ayni o'rinda mazkur paradigma qamrovidagi har bir a'zo boshqalaridan farq ham qiladi. Farq ularning ifoda materialiga (reprezentatsiyasiga) ko'radir»[4.9].

Nazarimizda, A.Berdialiev keltirgan misollarda bir yo'la kichik paradigmalarni va nisbatan katta paradigmalarni ko'ra olamiz. Agar berilgan oltita so'z katta paradigmaga misol bo'lsa, mazkur so'zlar tarkibida kelayotgan o'zak va affiks morfemalar, o'z navbatida, kichik paradigmalarni taqozo qiladi. Ammo til setemasining amalda qo'llanilishi o'ta murakkab hodisani tashkil etishini ham eslatib o'tish lozim ko'rinadi. Buni ayni paytda vertikal va gorizontal rejalarning o'zaro kesishishida ko'rishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, bu o'rinda bir paytning o'zida o'zak va affiks morfemalar alohida paradigmani tashkil etishlari bilan birga ular sintagmatik munosabatni ham shakllantirmoqda (bog'+bon, kaptar+boz).

Biroq ayni paytda biz e'tibor qaratgan misollarining barchasi til birliklarining ichki paradigmatic munosabatini taqozo etmoqda. Zotan, paradigmatic munosabat kichik yoki katta birliklar misolida bo'lishidan qat'i nazar, faqat bir turdagi til birliklarining ichki bog'lanishini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bunda til birliklari faqat vertikal qatorda invariant belgilarga ko'ra bog'lanadi[3.67]. Paradigmatic munosabat uchun bu juda muhimdir, zotan, paradigmatic bog'lanish doirasida bo'lgan til birliklari bir xil qurshov (distributsiya) sathida o'zaro munosabat tashkil qiladi.

F.de Sossyurning ta'kidlashiga ko'ra, bu vaziyatda paradigmatic va sintagmatik munosabatlar o'rtasida ham bog'lanish sodir bo'ladi (bu haqda ishimizning oldingi sahifalarida qisman aytib o'tgan edik). Nutqda shakllangan sintagmatik munosabat o'z navbatida, assotsiativ (paradigmatic) munosabat bilan o'zaro aloqada bo'ladi, zotan, sintagmalarning tarkibiy qismlarga bo'linishi bunga sharoit yaratadi[5.67]. Masalan, paxtakor so'zining tarkibiy qismlari (paxta+kor) sintagmatik bog'lanishda ekanligi izoh talab qilinmaydi. Biroq ongimizda mazkur so'zning paxtachi, paxtazor, paxtachilik va h.k. kabi so'zlar bilan paradigmatic munosabatda ekanligini har doim his eta olamiz. Endi, albatta, eslatib o'tilgan har bir so'zda o'zak va affiks morfemalar o'rtasida bir yo'la sintagmatik va paradigmatic munosabat hosil bo'layotganini ko'ramiz.

Agar sintagmatik munosabatni o'zak va affiks morfemalar o'rtasida ko'rsak, paradigmatic munosabatni affiks morfemalar o'rtasida kuzatamiz. Bunday vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi, zotan, biz nutqiy jarayonda har bir nutq birliklarini tanlab ishlatamiz.

L.Elmelevning glossemantik nazariyasida unli bilan undoshning o'zaro munosabatida kuzatiladigan bog'lanish interdependentsiya termini bilan ataladi. Bunda til birliklari o'rtasidagi bog'lanish bu birliklarning har ikkalasiga ham taalluqli ekanligi aytiladi. Biz ko'rib o'tgan o'zak va affiks morfemalar o'rtasidagi munosabatni esa, L.Elmelev determinatsiya termini orqali izohlaydi. Ayni paytda, bunday bog'lanishda o'zakning mavqei baland ekanligini, u affiksga qo'llanilishiga ko'ra qaram emasligini, affiks esa o'zakka tobe ekanligini alohida ta'kidlaydi. Olim til birliklari o'rtasidagi uchinchi xil munosabatni kontsellyatsiya termini orqali ifodalaydi va bunda birliklar munosabati erkin ekanligini qayd etadi (yozayapman, yozayapsan, yozayapti)[6.123].

Bu tarzda til birliklarining munosabatga kirishuvi ularning qurshov (ditsributiv) xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'ramiz. Bu juda muhimdir, chunki til birliklari nafaqat gorizontal qatorda, balki, vertikal qatorda ham qurshov tushunchasi bilan munosabatda bo'ladi. Fikr isboti uchun interdependentsiya Fikr tsboti uchun interdependentsiya Fikr isboti uchun interdependentsiya, determinatsiya, kontsellyatsiya hodisalarining har biriga alohida murojaat etish mumkin. Masalan, interdependentsiya hodisasida unli va undosh tovushlarning o'zaro bog'lanishida har bir tilning o'ziga xos ditsributiv me'yorlariga qat'i rioya qilishiga to'g'ri keladi. O'zbek tilida uchta undosh bir qurshovga sig'maydi. Rus tilida yoki undan o'zlashgan so'zlarda bunday vaziyatni bimalol kuzatish mumkin: kontsruktsiya, shtrix, presslamok.

Determinatsiya hodisasida ham o'zak bilan affiks o'rtasidagi bog'lanishda biz yuqorida ko'rib o'tgan qo'shimcha distributsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda muayyan morfemalar paradigmasining shakllanishi qurshov (distributsiya) tushunchasi bilan uzviy bog'lanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1]. Солцев В.М. Язык как системно-структурное образование. -М., 1971.
- [2]. Хайруллаев Х.З. Тил ва нутақ бирликларининг иерархик муносабатлари//Докт.дис.автореф. -Тошкент, 2018
- [3]. Турниязов Н. Гапнинг бевосита иштирокчилар ва трансформацион методлар асосидаги таҳлили//Структур синтаксис асослари. -Тошкент, 2009.

- [4]. Бердиалиев А. Ўзбек тили синтактик парадигмаси асослари. - Тошкент, 1991.
- [5]. Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. -М., 1977.